

O'QUVCHILARGA TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA MA'NAVIY VA MA'RIFIY TADBIRLARNING O'RNI

Tursunova Komolaxon Vohidovna

“Ziyo-Zukko umumta'lim maktabi”NTM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarda tarbiya va ta'lim uyg'unligi masalalari, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari, ularning ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashini kengaytirish, madaniyat tushunchasi, notiqlik san'ati, ta'lim va tarbiyada maktabda o'tkaziladigan ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarning o'rni va imkoniyatlari haqida yoritib, izohlab berilgan. O'tkazilayotgan tadbirdan albatta o'quvchining dunyoqarashi kengayishi, nutqi o'sishi, qiziqishi ortishi, har tomonlama yuksak tafakkur egasi bo'lib borishidagi o'rni izohlangan. Ushbu maqolad “Ziyo-Zukko Umumta'lim maktab”ida o'tkaziladigan tadbirlar namuna sifatida keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, , ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar, dunyoqarash, notiqlik, madaniyat, tafakkur.*

The role of spiritual and educational activities in the education and upbringing of students

Tursunova Komolaxon Vohidovna

Primary school teacher, NTM “Ziyo-Zukko umumta'lim maktabi”

Annotation: *In this article, the issues of the harmony of upbringing and education, the concepts of spirituality and enlightenment, the expansion of their spiritual and educational outlook, the concept of culture, the art of public speaking, in education and upbringing are discussed in this article. The role and possibilities of spiritual and educational events held in the school were explained and explained. his growth, increasing interest, and his role in becoming the owner of high thinking in all aspects are explained. In this article, the events held at “Ziyo-Zukko umumta'lim maktabi”NTM are cited as an example.*

***Key words:** education, training, spirituality, enlightenment, spiritual and educational activities, worldview, public speaking, culture, thinking.*

Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida “ma’no” so’zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo’y-basti, ko’rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg’ularini o’z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag’ishlaydi. Ma’naviyat ma’rifat va madaniyat bilan bog’liq. Ma’naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o’qish, o’rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma’naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma’naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o’tkazish yo’lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtayi nazaridan yondashadi. Vijdon nima, yolg’on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma’naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste’dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g’ururi, obro’-e’tibori hisoblanadi. Ma’naviyatli jamiyatda aql, sog’lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo’ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi. Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishisiz ma’naviyatni tasavvur qilish qiyin. „ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.

Ma'rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'limtarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmu-asini ham bildiradi. Ma'rifat ilmu urfon ma'nosida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuk ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir – keng ommani ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushuncha.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil qilish, tayyorlash va o'tkazishga o'quvchilarni keng jalb qilish, ayniqsa, mavzu tanlash, reja tuzish, ssenariy tayyorlash, tadbir o'tkaziladigan xonalarni jihozlash kabi yumushlarni o'quvchilar bilan birga amalga oshirish ulardagi dunyoqarashni, yangi g'oyalarga boy bo'lishni, har bir ishga ijodkorona yondashishiga turtki bo'ladi.

“Ziyo-Zukko Umumta'lim maktab”i NTM ni ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i desak bo'ladi. Bu maktabda ta'lim va tarbiya berish barobarida ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar yuqori saviyada bo'lib o'tadi. Boshlang'ich sinflarda bo'lib o'tadigan o'zbek, rus, ingliz va arab tillaridagi savodxonlik ochiq darslarida o'quvchilar shu to'rtta tilda erkin, ravon gapirib, she'rlar yod olib, qo'shiqlar kuylaydilar, raqsga tushadilar.

Har bir siyosiy-ma'naviy tadbirlar har bir sinfda ochiq dars sifatida o'tkaziladi. Bunga misol tariqasida, “Bir bo'lsak- yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” mustaqillik darslari, “Til – millat ko'zgusi”, “Bayrog'imiz-faxrimiz”, “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi”, “Madhiyamiz yangraganda”, “Har kunning qadr o'lubon, Har kunning bo'lsin Navro'z”, “Xotira abadiy, qadr muqaddas” kabi ochiq darslarini keltirsak bo'ladi. Ushbu ochiq darslarda o'qituvchilar tomonidan

har bir mavzuga ijodkorona yondashiladi, o'quvchilarimiz shu kunga oid ma'lumotlarni, she'rlarni, sahna ko'rinishlarini to'rtta tilda namoyon etib beradilar. Bunday ma'naviy-ma'rifiy ochiq darslar o'quvchilar yuksak salohiyatli, barkamol avlod bo'lib ulg'ayishlariga asos bo'ladi.

O'quvchilarimiz yurtimizning qomusiy olimlari bo'lmish Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Muhammad al-Xorazmiy, Sohibqiron Amir Temur, Abu Nasr Farobiy, Mahmud Zamaxshariy, so'z mulking sultoni Alisher Navoiy, Shoh va shoir Mirzo Bobur hayot va ijodiga alohida yonashilib o'rganiladi. O'quvchilarimiz ularning bolaligini, hayotini, ijodini o'rganib sahna ko'rinishlar bilan ko'rsatib beradilar. Ularning ijodlaridan she'rlar, hikmatli so'zlarni o'zbek, rus, arab va ingliz tillarida aytib beradilar.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy ochiq darslar, tadbirlar o'quvchilarimiz yuksak salohiyatli, barkamol avlod, ma'suliyatli shaxs, katta iqtidor egalari bo'lib ulg'ayishlarida asos bo'lmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa

O'quv jarayoniga ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni kiritish nafaqat foydali, balki o'quvchilarning yaxlit rivojlanishi uchun juda muhimdir. Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quv tajribasini boyitadi, nafaqat akademik qobiliyatli, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar avlodini tarbiyalaydi. Ishonamizki, "Ziyo-Zukko Umumta'lim maktab"i NTM o'quvchilari albatta yuksak salohiyatli, akademik qobiliyatli, axloqiy-ijtimoiy ma'suliyatli, bobokalonlarimiz kabi olim va olimalar bo'lib ulg'ayadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ -4307-son qarori.
3. "Manaviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati". T.:2009. G'.G'ulom nashryoti.

4. A.Aliev “Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat” T.: Akademiya-2007.
5. R.Ergashova “Kasb-hunar ta’limi muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarish” T.:2008.
6. Nosirov O‘.Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish. Uslubiy qo‘llanma, toshkent-2010.